

SHAXS SHAKLLANISHIDA IJTIMOY VA SOTSIAL MUHITNING PSIXIK
TA'SIRLARI

Qarjovova Mehriniso Mustafayevna

Talaba.

Axmadov Dilshod Jo'raxon o'g'li

Ilmiy rahbar.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.

O'zbekiston, Chirchiq shahri.

E-mail: d_axmadov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12674129>

Annotatsiya. Maqolada bugungi globallashuv davrida axborot texnologiyalariga bo'lgan talab va taklif jihaidan emas, balki yosh avlodning kibermakondagi ulushi, hamda ularning ijtimoiy tarmoqlarda faoliyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek kibermakon haqidagi tariflar, ushbu makonning xususiyatlari, ularning yoshlar ongiga tasiri haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: texnik, taraqqiyot, kibermakon, kompyuter texnologiyalari, online hayot, ijtimoiy tarmoqlar, teleko'rsatuvlar, filtrlash, virtual hayot, virtual ta'qib.

PSYCHIC EFFECTS OF SOCIAL AND SOCIAL ENVIRONMENT ON
PERSONAL FORMATION

Abstract. The article talks about the share of the young generation in cyberspace and their activities in social networks, not from the point of view of demand and supply of information technologies in today's globalization period. There are also opinions about cyber space tariffs, features of this space, and their influence on the minds of young people.

Keywords: technical, development, cyberspace, computer technology, online life, social networks, television shows, filtering, virtual life, virtual stalking.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНОГО И СОЦИАЛЬНОГО
ОКРУЖЕНИЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В статье говорится о доле молодого поколения в киберпространстве и их активности в социальных сетях не с точки зрения спроса и предложения информационных технологий в современный период глобализации. Также существуют мнения о тарифах на киберпространство, особенностях этого пространства и их влиянии на сознание молодежи.

Ключевые слова: техника, развитие, киберпространство, компьютерные технологии, онлайн-жизнь, социальные сети, телешоу, фильтрация, виртуальная жизнь, виртуальный сталкинг.

Hozirgi kunda butun dunyoda global tarmoqning shiddat bilan rivojlanib borishi uning insoniyat rivojlanishidagi salbiy va ijobiy ta'siri kundan kunga ortib bormoqda. Global tarmoqning insoniyatning ham ijtimoiy ham psixologik rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. XXI asr internet asri deya nomlangani ham bejizga emas o'tgan 10 yilda butun dunyoda barcha sohalarga internet tarmog'i kirib bordi. Bu esa o'z o'rnida insoniyatga global ishsizlik bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqda daromad qilish imkoniyatini yartmoqda. Global tarmoq o'z to'rini shu qadar kengaytirmoqdaki buni tasavvur etib bo'lmaydi. Insoniyat rivojlanishida kundalik faoliyatida

ko'plab qulayliklar yaratmoqda. Global tarmoq masofadan ta'lim olish, elektron pochta va yetkazmalar, tibbiy xizmatlar bularning barchasi insonlarga kundalik hayotida ko'plab qulayliklar yaratmoqda, vaqt va kuch imkoniyatlarini oshirmoqda. Shu bilan birga turli xil muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolar shaxs shakllanishida turli xil kasalliklar psixik stresslarni keltirib chiqarmoqda.

Ayonki, texnik taraqqiyotni to'xtatish mumkin emas: biz buni xohlaymizmi-yo'qmi, kompyuter texnologiyalari hayotimizda mustahkam o'ringa ega, kompyuter savodxonligi ko'rsatkichi esa ko'p hollarda insonning yuqori saviyasini belgilab beruvchi omilga aylanib bormoqda. Bugun kompyuterda ishlashni bilmaydigan xodimni yaxshi mutaxassis deyish qiyin.

Agar o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida yoshlarning eng sevimli mashg'ulotlari musiqa tinglash va teleko'rsatuvlar ko'rish bo'lsa, ayni kunda esa kompyuter va internet avvalgi qiziqishlarni yosh avlod hayotidan siqib chiqardi. Hozirgi zamon yoshlarining 70 foizi o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlari haqida so'z yuritganda sport, do'stlar bilan suhbatlashish, ma'naviy va madaniy hordiq chiqarish chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, internetga bo'lgan qiziqishini birinchi o'rinda tilga oladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri Kanadada o'n yetti yoshgacha bo'lgan 6 ming bola o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ular sodda ota-onalari o'ylaganidek, internetdan aksariyat, hollarda axborot olish maqsadida foydalanmas ekan. So'rovda ishtirok etganlarning 99 foizi internetdan foydalanishini, ularning har o'n nafaridan sakkiz nafari uyda ulanish imkoniyatiga ega ekanini bildirdi. Kanada yoshlarining yarmidan ko'pi internet va kompyuter texnologiyalarni ota-onalaridan yaxshiroq bilishini aytgan. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda internetga ulanishini, ota-onalari kompyuterga himoya vositasi bo'lgan «filtrlash» dasturini o'rnatib qo'ymaganliklari va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishdi. Umuman olganda, ota-onalarning aksariyat qismi, aniqrog'i, 65 foizi farzandlari internetdan faqat uy vazifasini tayyorlash uchun foydalanadi, degan fikrda, yoshlar esa ilm olishni eng oxirgi o'ringa qo'yadilar. Ular asosan internet orqali musiqa tinglaydi, elektron manzilni tekshiradi, xullas, vaqtini chog' o'tkazadi. Yoshlarning uchdan ikki qismi internetga yangi do'stlar orttirish va kim bilandir suhbatlashish maqsadida ulanadi, ularning 15 foizi keyinchalik bu munosabatlarni real hayotda davom ettirar ekan. Muloqotning bu kabi shakllari yaxshi, albatta.

Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham borki, unga chuqurroq nazar tashlash lozim. Alohida e'tibor talab etadigan jihat esa internet orqali ta'qib deb nomlanadi.

Tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, hozirda maktab yoshidagi bolalar internetdan tobora erta foydalana boshlamoqdalar. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari bemalol maktab yon atrofidagi kafe yoki klubga kirib, internetdan foydalanishi mumkin. Shu bois ular uyda ham internetga ulanish imkoni bo'lishini xohlashi tabiiy. Lekin, mutaxassislarning fikricha, yoshi o'nga yetmagan bola odatda mustaqil ravishda internetdan foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va shu asnoda ma'lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha qilib aytganda, «filtrlay» olish qobiliyatiga ega emas. Shu sabab, internetdan yolg'iz qolganda ham foydalanish ehtimoli bo'lgan bolani qattiq nazorat ostiga olish kerak, unga o'zi haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni internet orqali tanishgan odamlarga aytmaslikni o'rgatish zarur.

So'nggi paytlarda internet orqali ta'qib etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, grifing holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezoriligining eng birinchi qurbonlari aynan yoshlar

qatlami, xususan, o'smirlar hisoblanadi. Sababi, shu yoshda bolalar tabiatan ochiq bo'ladi hamda dunyoga faqat ijobiy nuqtai nazar bilan qaraydi. Ular o'zlari erishgan yutuqlari bilan o'rtoqlashishni, o'z fikrlarini birovlariga bayon etishni, g'oyalari bilan bo'lishishni xohlaydilar.

O'smirlar o'ta ishonuvchan, kompyuter o'yinlariga qobiliyatli, buyruqlarni osonlikcha bajaradigan bo'ladilar. Atrofdagilar bilan ko'proq muloqotda bo'lib, yangidan-yangi fikr-g'oyalarni o'rtaga tashlaydilar, ularni amalda qo'llashga intiladilar, biroq bu borada ularga hayotiy tajriba yetishmaydi. Shuning uchun ham ular saytlarda qidiruvni amalga oshirayotganda, axborotni qabul qilishda yoki elektron pochta manzildan foydalanayotganda kattalar yordamiga muhtoj.

Chunki bir qarashda beozor tuyulgan chat xonalar yoki maxsus muloqot dasturlari orqali kechadigan suhbatlar tafakkuri endi shakllanayotgan bolalarni oxir-oqibat jinoyatgacha yetaklab borayotgani hayotiy haqiqat. Grifing bilan shug'ullanuvchilar yoki grifyorlar zamonaviy yoshlarning qiziqishlaridan juda yaxshi xabardor bo'lib, onlayn konferensiya, forum xonalarida istalgan mavzuda suhbat yuritishi, o'zlarini ularning muammolarini tushunadigan odamlar sifatida ko'rsatishi mumkin, buning ustiga veb tarmoqda anonimlikni saqlash xususiyati qisqa fursat ichida ishonchga kirib olishga imkon yaratadi.

E.To'fflarning fikricha, ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarning tezlashishi insonga tashqi va ichki adaptatsiya(moslashish)da borgan sayin qiyinchiliklar tug'dirib, hozirgi zamon yoshlarining tafakkuri va dunyoqarashiga ta'sir o'tkazadi.

Texnologik raqamli asr hisoblangan hozirgi davrda butun hayotimizni internetsiz tasavvur qilish mushkul. Bularga ish faoliyatimizni, ijtimoiy aloqalarimizni, ta'lim jarayonlarini, kundlik hayotimizni misol qilib olishimiz mumkin. Bu borada Internet imkoniyatlari va uning ta'sir xususiyatlari to'g'risida Birinchi Prezident Islom Karimov quyidagicha fikr bildirganlar: "...Albatta, internet orqali dunyoning istalgan nuqtasi bilan tezkor aloqa o'rnatish, zudlik bilan zarur axborot va ma'lumotlarni olish, bilim va ma'rifatni oshirishda uning beqiyos o'rni va ahamiyati borligini hech kim inkor etolmaydi. Biz odamlarimizning internet imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishiga bo'lgan intilishlarini har tomonlama qo'llab quvvatlaymiz. Takror bo'lsa-da, aytmoqchiman-axborot olamida qandaydir devor o'rnatish, o'z qobig'iga o'ralib, mahbublikka yuz tutish yo'li bizga aslo ma'qul emas. Shu bilan birga, bugun yon-atrofimizda, uzoq-yaqin mintaqalarda yuz berayotgan voqealarni inobatga oladigan bo'lsak, hali ongi, hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagani yoshlarni chalg'itishga qaratilgan g'arazli kuchlar ham internet imkoniyatlaridan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishga urinayotgan va bunday intilishlarning qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Jamiyatda tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishga, o'zaro adovat va to'qnashuvlarga sabab bo'ladigan bunday xatarlarning oldini olishning bitta yo'li bor: yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, oqni qoradan, do'stni dushmandan ajratishga qodir bo'lgan, bizning qanday boy tariximiz va merosimizga ega ekanligimizni anglab yashaydigan, imon-e'tiqodli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan insonlar etib voyaga yetkazishimiz, bu masalani hech qachon ikkinchi darajali vazifa deb bilmasligimiz kerak".

Global tarmoq natijasida yuzaga kelgan eng katta muammo, bu, albatta, qaramlik, tobelik kasalligidir. Yoshlarning ko'p vaqtini inernetda o'tkazishlari global muammoga aylanib ulgurgan.

Bugun internet ayrim yoshlar uchun mashhur yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari qahramoni Hoshimjon topib olgan sehrli qalpoqchadir.

Umuman, internetga qaramlikning eng og'ir jihati real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, el-u yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur.

Internetda ko'p vaqtini o'tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o'z qobig'iga o'ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda "uchinchi kuchlar" tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamin yaratadi. Bugungi kunda buzg'unchi guruhlar yoshlar ongiga ta'sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas.

Internetning yana bir salbiy jihati – kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo'lishidir.

Bugungi dunyo yoshlari son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o'rin egalladi. Internet va axborotlar olami kun sayin bizni turli yangiliklardan voqif etmoqda. Internet yangi, hali hech kimga tanish bo'lmagan ismlar, atama va terminlar birinchi bor paydo bo'layotgan makonga aylanib bormoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki: Zamonaviy texnologiyalarning tez sur'atlarda o'sishiga qaramay, ba'zan odamlar ulardan oqilona foydalanish qanday kechishi kerakligini to'liq anglab yetmaydi. Kompyuter va internetgacha bo'lgan davrda o'sib-ulg'aygan ko'plab ota-onalar va muallimlarning katta qismi, agar bola internetdan foydalana boshlasa, buning, albatta, foydasidan zarari ko'proq, deb o'ylaydi. Bolani kompyuter yoki internetdan chalg'itish harakati zamirida aslida boshqa bir muammo, ya'ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi.

Biroq agar ular o'zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyoq yondashib, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo'yish to'g'ri emas. Buning ustiga yana bir jihat e'tiborga loyiq: aynan kattalarning tutgan yo'lidan kelib chiqqan holda bolalarda kibernetik do'stiga nisbatan munosabat shakllanadi. Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hamjdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo'lmaydi. Foydalanuvchilar ma'lumotlarning to'g'riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etilarkan, bu jihat «Internetda bo'lsa, demak, to'g'ri» deya fikrlaydigan bolalarga ham tegishlidir. Bu borada ularga internetda xohlagan inson o'z sahifasini yaratishi, unga har qanday ma'lumotni joylashtirishi va bunda unga hech kim to'sqinlik qila olmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Bolalarga keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo'naltirish natijasida faktlarni fikrlardan farqlashga, to'g'riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalanihga ularni o'rgatish mumkin.

Mamlakatimizning rivojlangan davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, yoshlarni ilg'or ilm-fan va texnologiyalar asosida tarbiyalash katta ahamiyatga ega.

Chunki taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyalarni egallagan, ijodiy fikrlaydigan, yuksak salohiyatli yoshlar hal qiladi.

REFERENCES

1. Балтаева И. Т. и др. USE OF VIRTUAL LABORATORIES TO CONDUCT FOOTBALL TRAINING //MODERN SCIENCE AND RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 709-718.
2. Jumayev U. X., Kazoqov R. T., Abdusalomov I. K. QUANTITATIVE EVALUATION OF QUALITY INDICATORS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 229-240.
3. Qutlimurotov I. X. et al. THE PROCESS OF ORGANIZING EDUCATIONAL ACTIVITIES OF STUDENTS AND MASTERING PERSONAL PROFESSIONAL KNOWLEDGE //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 869-879.
4. Солиев И. Р. и др. МОРФО-ФУНКЦИОНАЛ ВА АНТРОПОГЕНЕТИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРГА КЎРА ФУТБОЛЧИЛАРНИНГ ИШЧАНЛИК НАТИЖАЛАРИНИ БАШОРАТ ҚИЛИШ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
5. Тажибаев С. С. и др. ЖАХОН ЧЕМПИОНАТИ 2022 ЙИЛГИ ФУТБОЛЧИЛАР АНТРОПОМЕТРИК ЎЛЧАМЛАРИ ВА ТЕЗЛИК СИФАТИ ОРАСИДАГИ КОРРЕЛЯЦИЯНИ ЎРГАНИШ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
6. Тажибаев С. С. и др. 13-14 ЁШЛИ ФУТБОЛЧИЛАРНИНГ ТЕХНИК-ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ТАРБИЯЛАШ САМАРАДОРЛИГИ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
7. Boltayeva I. T. et al. PERIODS OF PRODUCTION EDUCATION. THE PERIOD OF INITIATION, PREPARATION, ACQUISITION AND COMPLETION OF THE PROFESSION //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 561-569.
8. Ganieva M. et al. THE UNITY OF TECHNIQUE, TACTICS AND STRATEGY IN TABLE TENNIS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1175-1183.
9. Usmonova S. H., Akmurodov M., Kazokov R. THE INFLUENCE OF TEMPERAMENT ON THE CHOICE OF SPORTS ACTIVITIES //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 63-70.
10. Umaraliyeva F. T., Kazoqov R. T. THE ROLE OF SPORTSWOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY AND IN THE DEVELOPMENT OF SPORTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1124-1131.
11. Mustafayeva N. A., Kazoqov R. T. USING THE MAIN CHARACTERISTICS AND POSSIBILITIES OF THE ELECTRONIC SCHEDULE IN SOLVING ISSUES RELATED TO PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1115-1123.
12. Kazoqov R. T., Axatov L. K. SPORT TOMOSHASINING ESTETIKASI. – 2024.
13. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
14. Umarov D. X. et al. NATIONAL MOVEMENT FOR THE DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS'PHYSICAL PREPARATION USING GAMES //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 732-741.

15. Umarov D. X. et al. THE EFFECTIVENESS OF USING A SET OF SPECIAL EXERCISES IN ANNUAL PREPARATION TRAINING OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 742-753.
16. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
17. Turopovich K. R., Rixsibayevna D. S. ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. – 2024.
18. Kazakov R. T. et al. MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 99-105.
19. Казоков Р. Т. и др. МАМЛАКАТИМИЗ ЯНАДА ЮКСАЛИШИДА БОЛАЛАР СПОРТИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-11.
20. Казоков Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
21. Казоков Р. Т. Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш //Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари. – Т. 11. – №. 1.
22. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
23. Казоков Р. Т., Мирзабдиллаева А. И., Мирзабдиллаева Х. И. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 29-34.
24. Казоков Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
25. Kazoqov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.
26. Давурбаева М. Ж., Казоков Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.

27. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ // Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.
28. Казоқов Р. Т. и др. КАСБИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ // GOLDEN BRAIN. – 2024. – Т. 2. – №. 8. – С. 69-77.
29. Казоқов Р. Т., Жўрақўзиев О. О., Эшпўлатов С. С. СПОРТ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ // Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 238-248.
30. Казоқов Р.Т., Бўриев Б.Ў., Абдиев Б.Ш., Джўрабаев А.М., Туропов А.Р. КУРАШ МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ // МИЛЛИЙ КУРАШ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ. - 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 161-163.
31. Джўрабаев А. М., Казоқов Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили // *Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili*” ga bag‘ishlangan. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-208.
32. Bektorov O. Y. et al. MONITORING THE KNOWLEDGE, SKILLS AND SKILLS OF STUDENTS DURING THE TRAINING PROCESS // *Modern Science and Research*. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 342-352.
33. Kazoqov R. T., Vo'ronov A. B. SPORTDAGI DOLZARB YANGILIKLAR // Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 47-56.
34. Казоқов Р. Т. и др. SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR // *TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR*. – С. 1-237.
35. Eshpo'latov S. S. METHODS AND PRINCIPLES OF IMPROVING TECHNICAL AND TACTICAL SKILLS AND PHYSICAL TRAINING OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS // *Modern Science and Research*. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1296-1302.
36. Kazoqov R. T., Eshpo'latov S. S. YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS ARE THE PROCESSES OF ORGANIZING TRAINING SESSIONS // *Modern Science and Research*. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1303-1310.
37. Pirmatov O. Z., Kazakov R. T. ROLE AND PLACE OF SPORTS AND ACTIVE GAMES IN THE GENERAL STRUCTURE OF EDUCATIONAL AND PRODUCTION PRACTICE // *Modern Science and Research*. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 125-131.
38. Kazakov R. T., Rasulov Q. Q. TRAINING IN INTERNATIONAL WRESTLING TECHNIQUES AND TACTICS // *Modern Science and Research*. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 180-186.
39. Axatov L. K., Burliyev U. K., Kazoqov R. T. AESTHETICS OF SPORTS SPECTACLE // *Modern Science and Research*. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 19-28.

40. Kazoqov R., Akmuradov M. PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF JUDO //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 481-488.
41. Kazoqov R. T., Umaraliyeva F. T. DRAW A KINESICYCLOGRAM OF SHORT-DISTANCE RUNNING AND BUILD A TIMELINE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1201-1208.
42. Kazoqov R. T. et al. IMPROVEMENT OF TECHNICAL TRAINING OF SHORT-DISTANCE ATHLETES //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1077-1084.
43. Kazoqov R. T. et al. STARTING TECHNIQUE IN SHORT DISTANCE RUNNING //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1070-1076.
44. Xalmuxamedov R. et al. ANALYSIS OF THE DEPENDENCE OF THE CONDITIONS OF THE MIDDLE MOUNTAIN OF INDICATORS OF THE INTENSITY ZONES OF TRAINING TRAINING LOADS OF QUALIFIED BOXER WOMEN //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 473-483.
45. Shoyimardanov S. A., Bobomurodov A. E., Kazaqov R. T. FORMATION OF PEDAGOGICAL SKILLS AND SKILLS IN STUDENTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 425-434.
46. Jumayev U. X. et al. ANALYSIS OF THE FINANCIAL POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE IN OFFICIAL DOCUMENTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 1202-1209.
47. Ziyamuxamedova S. A., Kazaqov R. T., Shukurova S. S. SOME BIOCHEMICAL BLOOD RESEARCHES OF ROWERS DURING PREPRATION PERIOD AND CONTESTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 982-989.
48. Raxmatov B. S. et al. SHORT DISTANCE RUNNING TECHNIQUE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 990-1000.
49. Yugay L. P. et al. RECOVERY OF THE BODY OF SHORT-DISTANCE RUNNING ATHLETES DURING SPORTS TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 365-371.
50. Akbarov A. et al. ANTHROPOMETRIC-PHYSIOLOGICAL INDICATORS OF MIDDLE-DISTANCE RUNNERS AND RECOVERY OF THEIR BODY DURING TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 358-364.
51. Kim D. et al. PEDAGOGICAL ANALYSIS OF THE PARTICIPATION OF STUDENT ATHLETES IN THE SWEDISH TEAM AND THE SWEDISH TEAM IN THE UZBEKISTAN CHAMPIONSHIP IN HEIGHT ATHLETICS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 346-353.
52. Nurullayeva D. S. et al. ETHICAL PROBLEMS AND THEM IN THE FIELD OF NATURE SOLUTIONS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 480-486.
53. Kazaqov R. T., Djo'rabayev A. M. MEANS OF RECOVERY OF WORKING CAPACITY OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 902-911.

54. Kazoqov R. T., Djo'rabayev A. M. DEVELOPMENT OF CYBER SPORTS IN UZBEKISTAN //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 893-901.
55. Yaqubov F. M. et al. METHODOLOGY OF SELECTION OF 10-12-YEAR-OLD PLAYERS AND ORGANIZATION OF TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 1271-1279.
56. Казоқов Р. Т. ҚИСКА МАСОФАГА ЮГУРУВЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ВА МАХСУС ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Fan-Sportga. – 2022. – №. 7. – С. 53-55.
57. Djo'rabayev A. M., Kazoqov R. T. O'ZBEKISTONDA KIBERSPORTNI RIVOJLANISHI. – 2024.
58. Baltayeva I. T. et al. USE OF VIRTUAL LABORATORIES TO CONDUCT FOOTBALL TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 709-718.
59. Baltayeva I. T. et al. CREATING AN INFORMATION-EDUCATIONAL ENVIRONMENT USING MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 700-708.
60. Melziddinov R. A., Akramov B. N., Kazoqov R. T. THE RELATIONSHIP OF THE EFFICIENCY OF TECHNICAL-TACTICAL ACTIONS OF FOOTBALL PLAYERS WITH THE LEVEL OF PHYSICAL PREPARATION //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 1153-165.
61. Umarov D. X. et al. NATIONAL MOVEMENT FOR THE DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS'PHYSICAL PREPARATION USING GAMES //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 732-741.
62. Umarov D. X. et al. THE EFFECTIVENESS OF USING A SET OF SPECIAL EXERCISES IN ANNUAL PREPARATION TRAINING OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 742-753.
63. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
64. Boltayeva I. T., Tashnazarov D. Y., Kazaqov R. T. TECHNICAL-TACTICS OF 13-14-YEAR-OLD FOOTBALL PLAYERS EFFICIENCY OF EDUCATIONAL ACTIONS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 91-98.
65. Boltayeva I. T. et al. ANATOMY OF THE EXACT AND NATURAL SCIENCES TEST TASK //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 99-105.
66. Казоқов Р. Т. и др. ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. – 2024.
67. Djurayeva X. X., Xodjiyev R. M., Kazoqov R. T. DIFFICULTIES IN TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 316-326.